

**O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH ISHLARINI
TASHKILLASHTIRISH**

Bog'ibekova Mavluda Adilbek qizi

Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumani 66-maktab psixologi

Kenjayeva Sevara Shanazarovna

Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumani 22-umumta'lim maktabi

Anotatsiya: Maktab o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirishda samarador usullarni qo'llashda, natijaviylikka erishishda, to'g'ri kasb tanlashga ko'maklashishda loyihaviy ishdan foydalanish.

Kalit so'zlar: Loyiha, loyihaviy ish, kasb, kasb tanlash, kasb-hunarga yo'naltirish, shaxs, kasblar forumi, chilangar, remontchi, tadbirkor, motiv, motivatsiya.

Kasb-hunarga yo'naltirishdan maqsad o'sib kelayotgan yosh avlodni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlashdir. Ularni kasb hunarga yo'naltirish orqali, bo'lajak kasbiy qarorlarni shakllantirish, kasbni erkin va mustaqil tanlashlari uchun kasb –hunarga yo'naltirish ishlariga mustahkam zamin yaratuvchi ilmiy-amaliy tizim sifatida qarash lozim. Bu tizim orqali har bir o'quvchi shaxsini kasbga yo'naltirishda individual xususiyatlarni ham xalq xo'jaligi manfaatlarini nuqtai nazardan mehnat reurslarini to'laqonli ta'minlash zaruratini hisobga olish kerak. Lekin bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning ilmiy amaliy tizimi yetarlicha ishlab chiqilmagan, ilmiy pedagogik asoslari talab darajasida yaratilmagan. Bundan tashqari hozirgi kun talablari asosidagi tezkor yangiliklar, zamonaviy texnologik o'quv qo'llanmalar, dars ishlanmalari, ko'rgazmali [vositalarning kamligi](#), kasb tanlash mezon va me'yorining belgilanganligi, kasb tanlash bo'yicha tezkor aloqning o'rnatilmaganligi kabi muammolar dolzarb masalardan biridir. Bugungi kunda ta'lim-tarbiya borasida ilgari borilayotgan islohatlarni pedagogik va axborot texnologiyalarisiz tasavvur



qilib bo'lmaydi. Inson omilini inobatga olgan holda manashu ikkita texnologiya ta'lim tarbiya samaradorligi omiliga aylanib ulgurdi. Jamiyatimizda fan va texnika texnologiyalar rivojlanishi ta'sirida bo'layotgan o'zgarishlar ta'lim tarbiyaga bo'lgan talabi o'zini ta'sirini ko'rsatmoqda. Mehnat ta'limini yo'nalishlaridan biri xisoblanmish kasb tanlash va ularni kasbga yo'naltirish kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Ishlab chiqarish va turli kasblardagi jarayonlar bilan o'quvchilarni tanishtirish imkoniyatlari juda kattadir. O'quvchilar o'zlari ota-onalariga yo shu ish bilan shug'ullanuvchilarning ishlarida yordam beradilar va yashash joyi atrofidagi mashinalari ishlarini ko'radilar. Shu kasbga oid dastlabki ma'lumot bilan tanishadilar. Kasb tanlash uchun o'quvchi o'z imkoniyatlarini baholay olish ko'nikmasiga, ya'ni qiziqishi mos kasblar bo'yicha ma'lumotga ega bo'lishi, bu kasblarning imkoniyatlari, kelajagi haqida axborot va yangiliklardan xabardor bo'lishi zarur. Maktablarda o'quvchi yoshlarni kasb –hunarga yo'naltirish bu ularni qiziqishlari va moyilliklari, layoqatlari hamda qobiliyatlariga mos holda kasb-hunar tanlashlariga ko'maklashish bilan bir qatorda o'smirlarni kasbiy o'zligini anglash va hayot yo'lini tanlashda maslaxat beruvchi omil sifatida qaralishi nazarda tutilgan. Bu to'g'risida bir qancha hukumat qarorlari qabul qilingan. Hukumat qarorlarining ijrosini ta'minlash yuzasidan o'quvchilarning kasbiy qiziqishi va layoqatini shakllantirishda, ularni ta'limning keyingi turiga to'g'ri jalb qilish uchun kasbga yo'naltirishda qo'llaniladigan o'quv –metodik qo'llanmalar, ilmiy –uslubiy tavsiyalar, me'yoriy hujjatlar, jamiyatda qadimdan mavjud bo'lgan hamda yangilanib, o'zgarib borayotgan kasblar haqidagi ma'lumotlarni ta'lim-tarbiya jarayoniga zamon bilan hamnafas yetkazish samaradorligiga bog'liqdir.

O'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini samarali tashkil etishda, ushbu jarayonni ta'lim muassasalarida amalga oshiruvchi o'qituvchilar, pedagog hodimlar hamda aholi o'rtasida(mahalla, ota-onalar) profilaktika ishlarini olib borish maqsadida hamkorlik ishlari amalga oshirilmoqda. Bularning zahirida o'quvchi yoshlarni kasbiy qobiliyati va layoqatini aniqlash asosida ularni kasbiy qarorlarini shakllantirishga qaratilgan yaxlit faoliyat jarayonida ta'limning keyingi turi va bosqichiga to'g'ri yo'naltirish yotadi.



O'quvchilarni kasbiy qarorlarini shakllantirish - bu o'quvchi-yoshlarga o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliyotga malakali mutaxassislar ko'magida kasbga bo'lgan layoqatiga ishonch hosil qilish, kasbiy vazifalarni qo'llay olish tajribasini hosil qilish, kasbiy madaniyat sifatlari (kasbiy idrok, kasbiy bilimdonlik, kasbiy tafakkur, kasbiy salohiyat va hokozalar)ni tarbiyalashga yo'naltirilgan izchil, tizimli, uzluksiz hamda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan pedagogik faoliyat jarayonidir. Chunki, o'quvchilarni kasb hunarga to'g'ri yo'nalganligini tashkil etish murakkab, uzoq muddatli dialektik jarayon bo'lib, uning metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilishi ko'zlangan maqsadga erishish muvaffaqiyatini kafolatlaydi. Mavjud obektiv va subektiv omillardan unumli faydolana olish ham o'quvchilarga kasb-hunarni to'g'ri tanlashlariga xissa qo'shadi. O'quvchi-yoshlar o'ratasida kasb-hunarga to'g'ri yo'naltirishni tashkil etishga nisbatan yangicha yondashuv o'z mohiyatiga ko'ra texnologik bo'lishi lozim. Chunki muayyan faoliyatga nisbatan texnologik yondashuv ushbu faoliyatning yaxlit jarayoni to'g'risida oldindan to'laqonli ma'lumotga ega bo'lish imkoniyatini beradi. Minglab kasblar olamidan o'quvchi tanlagan kasbiy qarori bo'yicha turli vaziyatlarni oqilona baholash asosida faoliyat mazmuniga ma'lum o'zgarishlar, yangiliklar kiritib, tarbiyalanuvchilarga mavjud bo'lgan kasbiy sifatlarni hisobga olish va ularni boyitish xususida qat'iy fikrga ega bo'lishi, kasb-hunarga yo'nalganligini samaradorligini muhim omillari bo'la oladi. Kasb-hunarga yo'naltirishni tashkil etishga nisbatan texnologik yondashuv-bu o'quvchi oshlar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy amaliy ko'nikma [va malakaga aylantirish](#), ularga faol kasbiy yo'naltirishni tashkil etish tajribasini yuzaga keltirish hamda kasbiy qobiliyat va layoqatlari asosida kasbiy qarorlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayonida amaliyotchi psixolog va kasb-hunarga yo'naltiruvchilar uchun kasb-hunarga yo'naltirishni tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish majmui bo'lib xizmat qiladi. Kasbiy qiziqish va moyilliklarni shakllantirishda hamma uchun zarur bo'lgan umumiy qobiliyatlar [masalan, ijodkorlikka bo'lgan qobiliyat] yoki juda ko'p kasblar va faoliyat turlari uchun zarur bo'lgan qobiliyatlar [tashkilotchilik qobiliyatlari] ayrim kasblar yoki nisbatan tor doiradagi kasblar uchun muhim hisoblangan maxsus



qobiliyatlar hisobga olinadi. Masalan elektromexanik releni sozlovchi kishining qo'llarida sezuvchanlik juda yaxshi rivojlangan bo'lishi kerak, bir xil ohangdagi qo'zg'atuvchilarga nisbatan bardoshlilik, transport vositalarini haydovchi kishi uchun zarur, chizmalarga karab murakkab buyumlar tayyorlaydigan kishilar uchun esa jismlarning fazodagi holatini tasavvur qila olish qobiliyati yaxshi rivojlangan bo'lmog'i kerak. Har qanday kasbda ham umumiy va maxsus qobiliyatlar birga qo'shib kelgan taqdirdagina ishning muvaffaqiyati ta'minlanishi mumkin. Xo'sh, agar kishida tanlangan kasb uchun zarur qobiliyatlarning hammasi bo'lmaschi? Bunday holda ikki yo'l bo'lishi mumkin: yo tanlangan kasbni o'zgartirish yoxud yetishmayotgan yoki kam namoyon bo'lgan qobiliyatlar o'rnini qoplash yo'llarini qidirib ko'rish kerak bo'ladi. Masalan: Xotirada kamchilik bo'lsa, muntazam ravishda har xil yozuvlar olib borish, kartoteka tuzish va boshqa shunga o'xshash tadbirlar bilan o'sha yetishmovchilik o'rnini qoplash mumkin. Jismning fazodagi tasvirini tasavvur etishdagi kamchiliklarni to'ldirish uchun hajmli modellardan foydalaniladi va hokazo. Qobiliyatning bo'sh rivojlanishi o'rnini qoplash bu odatdagi va zarur hodisa bo'lib, agar kishi o'z ishi sohasida chindan ham yuksak mahoratni egallashi kerak bo'lsa, qo'shimcha mashg'ulotlar uning hayotida katta o'rinni egallashi kerak. Maktabda olib boriladigan faol o'quv faoliyati sizning har biringizga o'z aqliy qobiliyatingizni va eng avvalo tafakkur tiniqligini, mantiqan to'g'ri fikrlashni, tafakkurning mustaqil va original bo'lishini, topqirlikni, chuqur mulohaza qilishni, aqliy teranlik va o'ziga tanqidiy munosabatda bo'lishni rivojlantirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI.

1. O'zbekiston Respublikasi Tashxis markazi "O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish" o'quv qo'llanmasi
2. Toshimov R. G'oziev Ye. G'. "Zamonaviy individual va guruh psixologiya". Toshkent, "Universitet" 1999y.
3. Ye. G'oziev, SH. V. Azizova "Tashkiliy psixologiya" Toshkent-1999y.
4. M. Rajabov "Eksperimental psixologiya metodlari to'plami".
5. M. G. Davletshin . Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. T. 2004
6. V. Karimova. Oila psixologiyasi. T. 2007